

## **MAMLAKATIMIZDA MIS SANOATI KLASTERINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

Nasimjanov Yunusjon Zoxidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Mustaqil izlanuvchi

### **Annotations**

Mazkur maqolada O'zbekistonda resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha samarali foydalanishda soliq tizimining ta'sirchanligini yanada oshirishga oid ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bundan tashqari soliqqa tortish maqsadida tabiiy boyliklarni iqtisodiy jihatdan guruhlash va ularning xususiyatlarini ko'rsatib berish, tabiiy boyliklarni soliqqa tortishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini nazariy tahlil qilish, tabiiy boyliklarni soliqqa tortishning xorij tjribasini qiyosiy jiahtadan tahlil qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini yortib berish.

**Kalit so'zlar:** resurs solig'i, nedra solig'i, byudjet, soliq ma'murchiligi, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi. konlar, xorijiy investorlar.

### **Kirish**

Hozirgi jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonida mamlakatimizda chet el investitsiyalarini keng jalb qilgan holda foydali qazilma konlarini sanoat usulida o'zlashtirish, zamonaviy usullar va texnologiyalar yordamida geologiya-qidiruv ishlarini rag'batlantirish hamda er qa'ridan foydalanuvchilarga soliq solish tartibini yanada takomillashtirish bo'yicha bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shunga ko'ra, iqtisodiyotda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlash, er osti boyliklarini asrash ularni soliqqa tortishning yangi mezon va mexanizmlarini takomillashtirish, iqtisodiyoti rivojlanishiga amaliy ta'sirini baholash masalalari muhim ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyundagi "Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'liq sohalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5159 sonli qarori bilan tasdiqlangan "yo'l xaritasi"ning 21 bandida kon-metallurgiya sanoati bo'yicha jahon amaliyotni o'rganish, eng maqbul tajribalarni respublika amaliyotiga tatbiq etish, ishlab chiqarish zanjirlarini tahlil qilish va rivojlantirish, qazib olish tannarxini kamaytirish va qo'shimcha qiymat yaratish masalalari bilan shug'ullanuvchi Kon-metallurgiya sanoati iqtisodiyotini



o‘rganish markazini tashkil etish bo‘yicha tahliliy materiallar taqdim etish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi oltinning katta zaxiralariga ega dunyoda to‘rtinchi davlat bo‘lib, qazib olish bo‘yicha 12-o‘rinni hamda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi uran va misning eng katta zaxiralariga ega o‘nta mamlakat qatoriga kiradi.

Soliq kodeksiga muvofiq, er qa’ri foydalanuvchilari er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq va bonuslarni (imzoli va tijoratbop topilmasi) to‘laydilar.

Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq bazasi qazib olingan (ajratib olingan) foydali qazilmalar hajmining hisobot davri uchun o‘rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati sifatida aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida mis qazib olishni “Olmaliq KMK” amalga oshirishini inobatga olib, bir qator ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Xususan, 2020 yilda “Olmaliq KMK” tomonidan 125,2 ming tonna mis qazib olingan bo‘lib, byudjetga 1 068,6 mlrd.so‘m soliq hisoblangan (soliq stavkasi – 15%).

2021 yilning yarim yilligida esa 59,6 ming tonna mis qazib olingan hamda byudjetga 779,1 mlrd.so‘m soliq to‘langan.

Shuningdek ayrim xorijiy davlatlarning foydali qazilmalarga soliq solish tizimlari o‘rganib chiqildi.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasida rentaga soliq solish usullaridan biri foydali qazilmalarni qazib chiqarish hududini tavsiflovchi koeffitsientni (Ktd), neft qazib olishning murakkablik darajasini tavsiflovchi koeffitsientni (Kd) va tugash darajasini tavsiflovchi koeffitsientni kiritishdir.

Tabiiy resursni iqtisodiy baholashga ijara yondashuvining mohiyati shundaki, uning qiymati ushbu resurs keltiradigan differensial rentaning hajmi bilan belgilanadi.

Differensial renta taxmin qilinadigan resursning yanada qulay tabiiy xususiyatlari (sifatli, qulay joylashuv va boshqalar) tufayli milliy iqtisodiyot oladigan iqtisodiy yutuqlarni ko‘rsatadi. Differensial rentani aniqlash resurslarning xususiyatlaridagi hududiy farqlarning ijtimoiy mehnat unumdorligiga ta’sirini hisobga olishga imkon beradi.

Qozog‘iston Respublikasida so‘nggi uch yil ichida er osti boyliklaridan foydalanuvchilarga soliq solish bo‘yicha bir qator o‘zgarishlar kiritildi:

2019 yil 1 yanvardan boshlab tijorat uchun kashfiyat bonusi chiqarib tashlandi;



2018 yil 1 yanvardan tog‘-kon korxonalari uchun yuqori foyda solig‘i chiqarib tashlandi.

Shu bilan birga, kon qazib oluvchi kompaniyalar uchun er osti uchastkalarini ijaraga berish bo‘yicha to‘lovlar joriy etildi. Ijara to‘lovlar foydali qazilmalarni razvedka qilish bosqichida 15 dan

60 MRPgacha (taxminan 110 dan 430 AQSh dollarigacha) va ishlab chiqarish bosqichida har kvadrat kilometr uchun 450 baravarigacha (taxminan 3 250 AQSh dollari) teng.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vaziriligida 2007 yil 30 oktyabrdagi 1735 son bilan ro‘yhatga olingan Nizom talablari bo‘yicha mis mahsuloti (mis katodi va mis katankasi) birja savdolari orqali faqatgina “Olmaliq KMK” hamda “O‘zbekiston rangli metall parchalari chiqindilarini tayyorlash va qayta ishlash zavodi AJ” tomonidan sotilishi belgilangan.

Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlar bazasi tahlili bo‘yicha 2020 yil davomida (EHFga to‘liq o‘tilgandan so‘ng), 8,7 mln. kg hamda 52,2 ming tn mis katodi va mis katankasi 2,3 trln.so‘m qiymatda realizatsiya qilingan.

Mazkur Nizomning 2 bandida mis mahsulotlari O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan, mahsulotni ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun sotib oladigan va ularni keyinchalik chuqr qayta ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga sotilishi belgilangan.

Yuqoridagi mahsulotlarning 8,7 mln. kg (100 foiz) hamda 11 ming tn (21 foizi) ushbu nizomda ko‘rsatilmagan korxonalar tomonidan realizatsiya qilingan.

Shuningdek, joriy yilda 27,6 ming tn hamda 2,5 mln. kg mis mahsulotlari 2 trln.so‘mga realizatsiya qilinib, shundan 3,6 ming tn (13 foizi) hamda 25 mln. kg (100 foiz) mahsulot yuqoridagi nizomda ko‘rsatilmagan korxonalar tomonidan realizatsiya qilingan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib foydali qazilmalarni qazib olish sohasini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Qozog‘iston Respublikasi tajribasidan kelib chiqib, foydali qazilmalarni qazib olish huquqi uchun undiriladigan tijoratbop topilma bonusi bekor qilish.
2. Respublikada strategik turdagilarning foydali qazilmalarga ega bo‘lgan er qa’ri uchastkalari shu jumladan, mis konlarini elektron online-auksion savdolari orqali sotilishini jadallashtirish;
3. Mis katodi va mis katankasini ishlab chiqarishda yuzaga keladigan ortiqcha chiqindilar (otval) tarkibidagi misni ajratib olish uchun chuqr qayta ishlab chiqarish



quvvatiga ega bo‘lgan yuridik shaxslarga otvalni realizatsiya qilish tizimini joriy qilish.

4. Strategik turdag'i foydali qazilmalarga ega bo‘lgan er qa’ri uchastkalarida geologiya qidiruv ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun maxsus soliq rejimini belgilash.

5. Otval tarkibidagi misni ajratib olib, “xom ash yodan tayyor mahsulotgacha” bo‘lgan ko‘p pog‘onali qo‘shilgan qiymat zanjirlarini yaratgan yuridik shaxslarga xom ash yo‘l qilishda foydalaniladigan konsentratlar xarajatining 10 foizigacha bo‘lgan miqdorda kompensitsiya joriy qilish. 2021 yilda resurs soliqlari va mol-mulk solig‘i bo‘yicha umumiy tushumlar 23,0 trln. so‘mni tashkil etdi. Bu 2020 yil bilan solishtirganda 1,8 trln. so‘mga ko‘p.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
2. Normurzaev U. Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlarini berish orqali samarali usullardan foydalanish yo‘llari //Ekonomika i obrazovanie. – 2021. – №. 3. – S. 91-95.
3. Normurzaev U. K. Amendments and additions to the tax code of the republic of uzbekistan on tax privileges in 2021. – 2021
4. Normurzaev Umid Xolmurzaevich Xukumatimiz tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlarining hisobini yuritish va samaradorligini tahlil qilish masalalari // Экономика и финансы (Uzbekistan). 2021. №10 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ukumatimiz-tomonidan-berilayotgan-soliq-imtiyozlarining-isobini-yuritish-va-samaradorligini-ta-lil-ilish-masalalari> (data obraшenija: 17.01.2023).

